



TA'LIMNI BOSHQARISH: TUSHUNCHA, XUSUSIYATI. TA'LIMDA BOSHQARUV

Ne'matova Mavsuma

*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti PTE-91 guruh
talabasi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif tomonidan ta'limni boshqarish tushunchasi, uning xususiyatlari va ta'lim sifatini yaxshilashda boshqaruv tizimini rivojlantirish va uni yanada takomillashtirish omillari haqida gap boradi. Maqola mamlakatimizda ta'lim sohasidagi boshqaruv faoliyatining huquqiy asoslari va bu asoslarning ta'lim sohasidagi tashkilotlarni tartibga solish, ma'naviyat va madaniyatni saqlash, ta'limni sifatli ko'rsatish va ma'lumotlarni himoya qilishga qanday ta'sir qilishi haqida o'qituvchilarga va o'quvchilarga yordam beradi.*

***Kalit so'zlar:** Huquq, tizim, malaka oshirish, boshqaruv apparati, ta'lim, tarbiya, maxsus ta'lim, inklyuziv ta'lim, organlar, huquqiy madaniyat.*

Kirish

Ta'limni boshqarish tushunchasi, ta'lim jarayonlarini tashkil etish, rahbarlik qilish, resurslarni boshqarish, o'quv natijalarini baholash va ta'limni takomillashtirish bilan bog'liq amallarni o'z ichiga oladi. Bu tushuncha ta'lim tizimini rivojlantirish, o'qituvchilar va o'quvchilarni yuksak natijalarga yo'naltirish, samarali o'rgatish va o'rganishni ta'minlashda muhimdir. Ta'limda boshqaruv tushunchasi ta'limning rivojlanishini, o'quvchilarning yuqori natijalarga erishishini va ularning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda kritik ahamiyatga ega. U ta'lim tizimini samarali boshqarish, rahbarlik qilish va takomillashtirishda keng foydalaniladi.

Ta'limda boshqaruvni rivojlantirish to'g'ridan-to'g'ri va ijtimoiy adolat, o'z-o'zini rivojlantirish, barcha fuqarolarga teng huquq va imkoniyatlar ta'minlash, oliy ta'limning yuksak darajaga ko'tarilishi, huquqiy salohiyatli kadrlar tayyorlash, tashkilotlarda rahbarlik vazifasini bajarish, huquqiy normalar, qonunlar, xalqaro standartlar va konvensiyalar bilan bog'liq ko'plab imkoniyatlarni amalga oshirishi mumkin.

Ta'lim sohasida boshqaruv faoliyati hozirgi kunda insonlar uchun yangi imkoniyatlar va innovatsiyalarning ochilishi, xalqaro hamjamiyatlar bilan aloqalar o'rnatish va yuksak darajadagi kadrlar tayyorlash kabi ko'plab yutuqlar ko'rsatishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, har bir davlat o'zining fuqarolariga o'zaro erkin qarashlarga imkon beradigan, huquqiy va innovatsion boshqaruv faoliyati o'rnatish uchun kelajakda barcha insonlar uchun yaxshi ta'lim beradigan muassasalar bilan ta'minlashi zarurdir.

Ta'lim sohasida boshqaruv faoliyati huquqiy asoslariga amal qilish muhimdir. Bu ijtimoiy rivojlanish omiliga muvofiq, ta'lim tizimining huquqiy tashkilotlari



tomonidan ta'lim sifatini nazorat qilish, o'quvchilarning huquqlarini himoya qilish, ta'lim jarayonini baholash va rivojlantirish uchun huquqiy mexanizmlar ishga tushirilishi kerak. Shuningdek, ta'lim tizimining qo'shimcha maslahatlar, konsultatsiyalar va yordam ko'rsatish xizmatlari bilan ta'minlanishi kerak.

Natija

Xususan bugungi zamon talablariga ko'ra ta'lim muassasasini boshqarish aslida murakkab jarayon hisoblanadi. Muammolarni yechimini quyidaga fikrlar bilan yechish mumkin:

- Boshqaruvning tarkibiy qismlari, maqsad va vazifalarini tog'ri tanlash;
- Bugungi kunga qadar erishilgan yutuqlarni o'rganib chiqish va tahlil qilish;
- Kelgusida qilinadigan ishlarni rejalashtirish;
- Ta'lim va tarbiya darajasini oshirishning zamonaviy usullarini tashkil qilish;
- Jamiyatimizda tubdan isloh qilingan ta'lim tizimini yaratish.

Avvalo boshqaruv ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak. Insonning har qanday faoliyatining yo'nalishini, xarakterini uning ko'zlagan maqsadi belgilaydi. Maqsad esa huddi qonundek ong ostiga ta'sir qilib, harakatning sifatini va usulini belgilaydi. Demak ko'rinib turibdiki boshqarish ham inson faoliyatining o'ziga xos sohasidir. Yuqoridagi fikrlarning mohiyati shundaki, boshqarishda maqsadni to'g'ri, aniq belgilash uning natijasining samarador va yuqori bo'lishiga turtki bo'ladi. Quyidagi fikrlarga e'tiborni qaratsak:

- boshqarish bo'g'inlarida aniq maqsadni belgilash umumiy tizim maqsadini aniqlashga asos bo'ladi;
- rahbarning boshqaradigan tizim maqsadini chuqur tushunishi, uni umum jamiyat maqsadi bilan muvofiqlashtira olishi boshqarishda taktik va strategik tomonlarni hisobga olib, istiqbolni belgilashiga zamin hozirlaydi.
- boshqarish maqsadini belgilash, uning mazmuni va boshqarish usul, vositalarini optimal belgilash imkoniyatini beradi.

Boshqarishning uzluksizligiga ham jiddiy e'tibor berish kerak. Ta'lim tizimi uzluksiz bajaradigan vazifasi jihatidan bir-biriga bog'liq umumiy maqsad-komil insonni shakllantirishni amalga oshiradi. Bunda har bir bo'g'in o'z vazifasiga ega. Demak boshqarishning maqsadi, funksiyasi va tuzilishi uning shakli va mazmunini belgilab berar ekan. Mazmun esa shaklni belgilaydi. O'z navbatida shakl ham mazmunga ta'sir ko'rsatadi. Boshqarish funksiyasi faoliyatda amalga oshadi. Tizimning mavjudligi uni boshqarish jarayonini amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi. Boshqaruvchi kishining faoliyati aniq va maqsadga qaratilgan ma'lum talablardan iboratdir.



Boshqarish vazifasi mohiyatli zaruriy, takrorlanuvchi xarakterli majmui bo'lib, yagona mazmun va maqsadga qaratilgan. Bunda boshqarish faoliyati bir-biriga bog'liq va alohida vazifalarni o'z ichiga oladi bunda boshqarish vazifalari rejalashtirish, tartibga solish, tashkil etish, sozlash, muvofiqlashtirish, nazorat, rag'batlantirish, izlash, faollashtirish, hisob-kitob kabi harakatlar orqali amalga oshiriladi. Boshqarish vazifalarini amalga oshirish uchun ta'lim muassasasida boshqarish tizimini tashkil etiladi. Bu asosan boshqarish sub'ekti direktor oliy o'quv yurtlarida esa rektor o'z navbatida boshqarish bo'g'inlarini tashkil etadi. Shu bo'g'inlar orqali u boshqarish ob'ektiga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir mavjud ob'ekt rivojlanishini tezlashtirishga xizmat qiladi. Yuqorida aytilganidek, boshqarish sub'ektlar faoliyatining harakatlari majmui bo'lib, har xil vazifalarni ado etish hisoblanadi.

Metodologiya

XXI-asrga kelib har bir davlat o'zining taraqqiyotga erishishida yaxshi talim olgan fuqorolarni tarbiyalash eng yaxshi yo'l ekanligi tushunib yetdi. Shu sababli ta'lim sohasida boshqaruv faoliyati, ta'limni boshqarish uni rivojlantirishda asosiy omillardan biridir. Bundan tashqari ta'lim tashkilotlarini boshqarish bilan dolzarb muammolar yuzaga kelgan davlatlar ta'lim sifatini oshirish uchun e'tiborni avvalo boshqaruv tizimiga qaratish kerak deb hisoblashadi.

Ta'lim sohasida boshqaruv faoliyati, har bir davlatning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va o'zaro aloqador tizimlarini birlashtirishni, o'zaro qarashlarga imkon berishni, xalqaro standartlarni ta'lim tizimiga qo'llashni, kadrlar tayyorlash va qonunlar bilan ta'minlashni talab qiladi. Ta'lim sohasida boshqaruv faoliyatining barcha huquqiy va ijtimoiy asoslari, ta'limning sifati va shakllanishiga, o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan maqsadlariga erishishda katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston ta'lim tizimida boshqaruv faoliyati yuqori sifatli ta'limning o'rnatilishiga, barcha talabalarni mukammal o'qitishga va ularga barcha ko'nikmalarni taqdim etishga ahamiyat beradi. Ta'lim sohasida boshqaruv faoliyatining muhim yo'nalishlari ta'lim dasturlarini amalga oshirish, pedagogik tizimlarni takomillashtirish, o'qitishning innovatsion shakllanishiga ega bo'lish, talabalarining ijtimoiy, axborot-texnologik rivojlanishida o'ziga muvofiqlik qilish, yuridik o'zgarishlarni yuritish, o'quv jarayonini nazorat qilish va uni baholash, tashkilotlarning kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish, xalqaro standartlarga rioya etish va ta'limni ijtimoiy sohasida mukammal tashkil etish kabi muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Ta'limda boshqaruvga doir mummolarning vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri, jamiyat hamda iqtisodiyotning keskin o'zgarib borishida. Qisqa



qilib aytganda zamonaviy sharoitda eskicha boshqaruv tizimi bilan qolib ketish bu eng asosiy va katta muammolardan biri. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun dastlab boshqarish sohasida malaka oshirish yoki kadrlarni qayta tayyorlashdan o'tkazish kerak.

Xulosa

Xulosa qilish mumkin, ta'lim sohasida boshqaruv faoliyatining huquqiy asoslari ta'limni boshqarishda muhim omil hisoblanadi. Ta'lim muassasalari faoliyatini maqsadli boshqarish yosh avlod tarbiyasida, o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yangi o'sib kelayotgan avlodning ta'lim sohasida tashkil etilgan zamonaviy moddiytexnik bazasidan unumli foydalanishni ta'minlash, oliy va o'rta maxsus ta'limi tizimidagi yo'nalishlar va mutaxassislar bo'yicha davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, o'quv-metodik adabiyotlarni qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.09.2018 yildagi PF-5538-son. <https://lex.uz/docs/-3893445>
2. <https://in-academy.uz/index.php/zdift/article/download/4832/3997>
3. Taxirovna, A. S. (2024). Features of Uzbek and English story translations. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 2(2), 202-208.
4. Ergashevna, S. N. Pedagogical Aspects of Improving the System of Distance Training of Public Education Workers. *JournalNX*, 107-110.
5. Psixologik boshqaruv darslik va pedagogik darslik qo'llanma. O. Haydarova, N. Ochilova. 48 bet. <http://lib.jizpi.uz/course/view.php?id=6>
6. Alavutdinova, N., & Abdurahmonova, M. Ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish muammolari. O'ZBEKIST, 87.
7. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirining 255-sonli buyrug'i/2021yil 30- dekabr.
8. Ganievna, N. A. (2015). 20. Asır Özbek Dilbiliminde Morfolojiye Ait Görüşlerin Şekillenmesinde Prof. Eyyüp Gulamov'un Yeri.
9. Taxirovna, A. S. (2023). EXPLORING LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS IN THE TRANSLATION OF STORIES: ENGLISH AND UZBEK PERSPECTIVES. *ENG YAXSHI XIZMATLARI UCHUN*, 1(6), 59-62.